



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI  
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-89-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Tumandagi ayrim ziyoratgohlarning nomlarini tasdiqlash  
to‘g‘risida**

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida ”gi qarori ijrosini ta’minalash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi,

**QAROR QILADI:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari tasdiqlanayotgan ayrim ziyoratgohlarning ro‘yxatini 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Sattarov), tuman qurilish bo‘limi (N.Mamadiyev), Davlat kadastrlar palatasi Sho'rchi tumani filiali (I.Pulatov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari tasdiqlangan ziyoratgohlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni

amalga oshirsin.

4. Tuman qurilish bo‘limi (Q.Xo‘jamqulov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Mengboev) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni bosqichma-bosqich o‘rnatalishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi tahririysi (B.Elmurodova) ga rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Nazarov), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Rajabov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi



Xudoyberganov B.X

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman Kengashining  
2022 yil 14 iyuldagি  
VI-48-89-8-120-K/22-son qaroriga  
1-ilova

### **Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumandagi ayrim ziyoratgohlarning nomlari**

| T/r | Geografik obyektning turi | Joylashgan o‘rni | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining xulosasi  |
|-----|---------------------------|------------------|------------------------------------|---|---|
| 1.  | Ziyoratgoh                | Tolli MFY        | Nomsiz                             | “Tolliota” ziyoratgohi                        | <b>Tolliota</b> - ‘Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish’i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.    |
| 2.  | Ziyoratgoh                | Oqkamar MFY      | Nomsiz                             | “Hojibobo, Cho’pon ota” ziyoratgohi           | <b>Cho’ponota</b> -“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.   |
| 3.  | Ziyoratgoh                | Kakan MFY        | Nomsiz                             | “Sovjironbobo” ziyoratgohi                    | <b>Sovjironbobo</b> -“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |

|    |            |                   |        |                                |  |
|----|------------|-------------------|--------|--------------------------------|--|
| 4. | Ziyoratgoh | Oftobmakon<br>MFY | Nomsiz | "Qorashayxbobo"<br>ziyoratgohi | Qorashayxbobo -“Geografik obyektlar nomlarining o‘zbek tilida<br>yozilish”i Qoidalari asosida normallashtirildi. |
|----|------------|-------------------|--------|--------------------------------|--|